

“NAZORATDA 29.09.2022-yil”  
O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2020-  
yil “24” fevraldagi  
45-um-son buyrug‘iga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida  
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash  
USLUBIYOTI**

**1-bob. Umumiq qoidalar**

1. Ushbu Uslubiyot adliya organlari va muassasalari zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi hamda adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda yagona yondashuvni yaratishga qaratilgan.

2. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

adliya organlari va muassasalari faoliyatini har tomonlama tahlil qilish yo‘li bilan korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan adliya organlari va muassasalari xodimlarining funksiyalari va lavozimlarini aniqlash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish.

3. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagi hujjatlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha choralar (tadbirlar), mas’ul shaxslar, ularni amalga oshirish mexanizmi va muddatlarni o‘z ichiga qamrab oladigan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati;

korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri.

(3-bandning to‘rtinchi, beshinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrda 230-um-son buyrug‘i bilan to‘ldirilgan.)

4. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki muntazam ravishda, quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash zaruriyati kelib chiqqanda;

qonun hujjatlari talablari o‘zgarganda;

funksiya va tartib-taomillarni amalga oshirishga jiddiy ta’sir qiladigan tarzda adliya organlarining ichki hujjatlari o‘zgarganda;

adliya organlari va muassasalarining tashkiliy tuzilmasi, xavf-xatar mavjud funksiyalari xususiyatlarining o‘zgarishi, yangi funksiyalarning paydo bo‘lishi;

adliya organlari va muassasalari funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarning kelib chiqishi.

5. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**baholash xulosasi**—adliya xodimining yoki umuman adliya organi va muassasasining subyektiv qarashi yoki fikri asosida biron-bir fakt yoki hodisa bo‘yicha qaror;

**davlat mulkini boshqarish funksiyasi**—adliya organlari va muassasalarining davlat mulkini operativ boshqarish hamda undan foydalanish bilan bog‘liq funksiyasi;

**davlat xizmatlarini ko‘rsatish funksiyasi** – murojaatchilarning so‘rovlari asosida davlat xizmatlarini va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan adliya organlari va muassasalarining funksiyasi;

**funksiya**—tartib-taomillar yig‘indisini tashkil etuvchi adliya organi yoki muassasasining faoliyatning jarayonlaridan biri (faoliyat yo‘nalishi”);

**ishchi guruhi**—korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mavjud bo‘lmagan davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi;

**korrupsiyaga oid huquqbazarlik**—korrupsiya belgilariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaviy harakatlar**—xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya’ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va’da qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarini olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaviy xavf-xatar**—shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi**—adliya organlari va muassasalari faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darjasasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish

choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralarini amalga oshirishga mas’ul ijrochilarni o‘z ichiga olgan hujjat;

**litsenziyalash funksiyasi**—litsenziyalar berish, to‘xtatib turish, amal qilishini tugatish, bekor qilish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun berilgan arizalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha funksiya;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash**—adliya organi yoki muassasasining amalga oshiriladigan funksiyalari (vakolatlari)ni tahlil qilish, ularga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo‘yicha faoliyat;

**qoldiq xavf-xatar**—aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

**ruxsat berish funksiyasi**—jismoniy va yuridik shaxslarga muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishga imkon beradigan adliya organlari va muassasalarining ruxsatnomalar berish bo‘yicha faoliyat;

**ro‘yxatga olish funksiyasi**—obyektlarning huquqiy maqomini belgilash, o‘zgartirish yoki tugatish maqsadida hujjatlar, huquqlar va boshqalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq adliya organlari va muassasalarining funksiyasi;

**tartib-taomil**—bitta shaxs tomonidan bajarilishi asosida bitta guruhga birlashtirilishi mumkin bo‘lgan yoki bitta natijaga yo‘naltirilgan yoki ma’lum bir jarayonning ajralmas elementi bo‘lgan adliya organi yoki muassasasi funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi harakatlar majmui;

**xos xavf-xatar**—adliya organi yoki muassasasi faoliyatining o‘ziga xos xususiyati va chora-tadbirlar amalga oshirilishini hisobga olmasdan bajaradigan funksiyalariga ko‘ra xos bo‘lgan, kamaytirishga qaratilgan xavf-xatar (ya’ni, mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatni, minimallashtirish va joriy qilingan nazorat choralarini hisobga olmasdan);

(5-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug‘i tahririda.)

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Adliya vazirligi tizimiga kiruvchi barcha tarkibiy va hududiy bo‘linmalarni qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Adliya vazirligi markaziy apparatida Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (bundan buyon matnda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi deb yuritiladi) hamda Adliya vazirligi tizimiga kiruvchi adliya organlari va muassasalarida tashkil etiladigan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

(6-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug‘i tahririda.)

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi barcha adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash va aniqlangan xavf-xatarlarni

minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun mas'ul bo'linma hisoblanadi.

## **2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash**

8. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash adliya vazirining topshirig'i asosida amalga oshiriladi. Bunda uning amalga oshirilishi muddati belgilaniladi.

9. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash uchun har bir adliya organi yoki muassasasida ishchi guruh tuziladi. Ishchi guruh tarkibi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bilan kelishilgan holda adliya organi yoki muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

10. Adliya organi yoki muassasasida ishchi guruhi tarkibiga:

joylarda korrupsiyaviy baholashni muvofiqlashtiradigan va tegishli adliya organi yoki muassasasining korrupsiyaviy xavf-xatarlari idoraviy xaritasining yakuniy loyihasini tayyorlaydigan adliya organi yoki muassasasining korrupsiyaga qarshi muvofiqlashtiruvchisi (Adliya vazirligining markaziy apparatida muvofiqlashtiruvchi funksiyasini Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi amalga oshiradi);

adliya organi yoki muassasasining funksiyalarini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linma rahbarlari;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan adliya organi yoki muassasasining boshqa xodimlari kiradi.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi ishchi guruhi faoliyatini muvofiqlashtiradi, adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonini kuzatadi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchilarga ular tomonidan mazkur Uslubiyotda nazarda tutilgan tartibga rioya qilishi bo'yicha maslahat beradi.

12. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash doirasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi quyidagi tartib-taomillarni amalga oshiradi:

barcha idoraviy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasida umumlashtiradi;

adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini adliya vaziri, Adliya vazirligi Hay'atiga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning idoraviy xaritasini adliya organlari va muassasalari rahbarlarining e'tiboriga yetkazadi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

zaruratga ko'ra, bo'linma rahbarlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchilardan qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'raydi;

korrupsiyaning kelib chiqishiga olib keladigan sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan takliflarni rahbariyatga kiritadi;

adliya organlari va muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi idoraviy hujjatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida adliya vaziri tomonidan tasdiqlanadigan xulosa tayyorlaydi.

13. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholanishi quyidagi bosqichlardan iborat:

tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda adliya organi yoki muassasalarining tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan funksiyalar va tartib-taomillarning tavsiflarini ishlab chiqadi va tegishli tavsiyalarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchiga yuboradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi tomonidan barcha taqdim qilingan tarkibiy bo‘linmalarning funksiyalari va tartib-taomillar tavsifini tahlil qiladi va har bir amalga oshirilayotgan funksiya va tartib-taomillarning ushbu Uslubiyotning 4 va 5-boblarida ko‘rsatib o‘tilgan tartibda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini belgilaydi;

korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi ushbu Uslubiyotning 6-bobiga muvofiq idoraviy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasini ishlab chiqadi;

oldiq korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori va o‘rta darjasini berilganida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi baholovchi tartib-taomillarni bajarishga mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linma rahbarining majburiy ishtirokida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish choralari ishlab chiqiladigan majlisni tashkil qiladi. Agar majlis natijalariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi va tarkibiy bo‘linma rahbari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning yetarliligi bo‘yicha kelishib olmagan bo‘lsa, har ikkala pozitsiya korrupsiyaviy xavf-xatarlar idoraviy xaritasida aks ettiriladi va ular bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limidan taklif olgandan keyin adliya organi yoki muassasasi rahbariga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi.

14. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi va tarkibiy bo‘linma rahbari bilan birgalikda ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning minimallashtirish choralari idoraviy korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi loyihasiga kiritiladi.

15. Idoraviy korruksiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi loyihasi korruksiyaga qarshi kurash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi tomonidan adliya organi yoki muassasasi rahbariga, shuningdek Korruksiyaga qarshi kurashish bo'limiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

16. Korruksiyaga qarshi kurashish bo'limi idoraviy korruksiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi to'g'ri va to'liq to'ldirilganligini tekshiradi, korruksiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning yetarliligi va maqbulligini har bir tartib-taomil kesimida tahlil qiladi.

17. Korruksiyaviy xavf-xatarlarning idoraviy xaritasi loyihasini ko'rib chiqish yakuni bo'yicha Korruksiyaga qarshi kurashish bo'limi, agar e'tirozlar va savollar bo'lsa, Korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchiga va adliya organi yoki muassasasi rahbariga korruksiyaviy xavf-xatarlar xaritasidagi e'tirozlarni bartaraf etish va masalalarni aniqlashtirish to'g'risida so'rov yuboradi.

18. Korruksiyaga qarshi kurashish bo'limining e'tirozlari va savollari bo'limgan taqdirda, korruksiyaviy xavf-xatarlar idoraviy xaritasi adliya organi yoki muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlash uchun tayyor hisoblanadi, bu haqda Korruksiyaga qarshi kurashish bo'limi mas'ul muvofiqlashtiruvchi bilan adliya organi yoki muassasasi rahbarini xabardor qiladi.

19. Adliya organi yoki muassasasi rahbari korruksiyaviy xavf-xatarlarning idoraviy xaritasini tasdiqlaydi.

### **3-bob. Korruksiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda (yillik) baholanishi**

20. Adliya vazirligi tizimida korruksiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda (yillik) baholash adliya vazirining topshirig'i asosida tashkil etiladi.

Adliya vazirligi tizimida korruksiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

*(20-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug'i bilan to'ldirilgan.)*

21. Korruksiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda (yillik) baholashni amalga oshirishda, adliya organlari va muassasalaridagi korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchilar Korruksiyaga qarshi kurashish bo'limi ko'magida adliya organlari va muassasalarining tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga ular tomonidan o'z bo'linmalarining funksiyalarini tavsiflaydigan quyidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun mazkur Uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq shaklda so'rovnomada yuboradilar:

qonunchilikda adliya organlari yoki muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan tartib-taomillarga ta'sir ko'rsatadigan biron-bir o'zgarishlar mavjudmi;

adliya organi faoliyatida yoki davlat organlari tizimida biron-bir o‘zgarishlar bo‘lganmi yoki adliya organi funksiyalarini bajarishiga ta’sir ko‘rsatgan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa tashqi omillar sodir bo‘lganmi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar oxirgi marta baholanganidan keyin funksiya tuzilmasida, funksiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujatlarda o‘zgarishlar bo‘lganmi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avvalgi baholashda belgilangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarini minimallashtirish bo‘yicha choralar amalga oshirilganmi;

adliya organlari bo‘linmalarida funksiyalarini bajarish va tartib-taomillarni amalga oshirish tartibiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa holatlar mavjudmi.

22. Adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchilari tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalarni umumlashtiradi va ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yuboradilar.

22<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) davlat tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi mumkin.

Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini takomillashtiradi.

*(22<sup>1</sup>-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug’iga asosan kiritilgan.)*

23. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini hamda adliya organlari va muassasalarining tarkibiy bo‘linmalari rahbarlaridan olingan ma’lumotlarni minimallashtirish uchun xavf-xatarlarni dastlabki baholash doirasida ishlab chiqilgan yoki amalga oshirilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda baholashni amalga oshiradi.

#### **4-bob. Adliya organlari va muassasalarida amalga oshiriladigan funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlari darajasini baholash uslubiyoti**

24. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda adliya organlari va muassasalarini bo‘linmalarining har bir funksiyasi va tartib-taomillari korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish mumkinligi jihatidan tahlil qilinishi kerak.

25. Funksiya yoki tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarining darajasini baholash quyidagi bosqichlardan iborat:

funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatari darajasini dastlabki baholash;

adliya organi yoki muassasasi xodimlari tomonidan tegishli funksiya doirasida amalga oshiriladigan alohida tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatari darajasini baholash.

26. Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash doirasida har bir funksiya quyidagi o‘lchov asosida baholanadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p duch keladigan funksiya;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam duch keladigan funksiya.

27. Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish uchun (inson, moddiy, texnikaviy va moliyaviy) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash navbat bilan o‘tkazilishi mumkin, ya’ni korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birinchi navbatda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan funksiyalar bo‘yicha baholash kerak.

28. Korrupsiyaviy xavf-xatarlari yuqoriroq bo‘lgan funksiyalarga quyidagi misollarni keltirib o‘tish mumkin:

davlat xizmatlarini ko‘rsatish, shu jumladan adliya organlari va muassasalari zimmasiga yuklatilgan litsenziyalash va boshqa ruxsat berish, shuningdek ro‘yxatga olish funksiyalari;

normativ-huquqiy hujjatlar bilan Adliya vazirligi, adliya organlari va muassasalari zimmasiga yuklangan nazorat funksiyalari;

adliya organlari va muassasalarining davlat mulkini boshqarish;

adliya organlari va muassasalari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish, tovar (ish, xizmat)larni pulli asosda sotib olish;

adliya organlari va muassasalarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larini ajratish to‘g‘risida qarorlar tayyorlash va qabul qilish;

adliya organlari va muassasalariga ishga qabul qilish, xodimlarni tanlash va joylashtirish, taqdirlash va rag‘batlantirish choralarini qo‘llash haqida qarorlar tayyorlash va qabul qilish;

adliya organlari va muassasalari xodimlariga individual imtiyozlar, preferensiylar va yengilliklarni berish;

davlat ekspertizasini o‘tkazish hamda adliya organlari va muassasalari tomonidan xulosalar berish;

adliya organlari va muassasalari tomonidan moddiy-texnik resurslarni saqlash va taqsimlash;

sudlarda adliya organlari va muassasalarining manfaatlarini ifodalash;

ariza yoki hisobot va boshqa hujjatlarni qabul qilish doirasida adliya organlari va muassasalarining fuqarolar va yuridik shaxslar bilan o‘zaro munosabatlari.

29. Agar adliya organi yoki muassasasi ushbu Uslubiyotning 28-bandida ko‘rsatib o‘tilmagan funksiyalarni bajarsa, ushbu funksiyalar quyidagi holatlarda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan hisoblanadi:

korrupsiyaviy xatti-harakatlari to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali ushbu funksiyaga tegishli shikoyat yoki xabarlarning mavjudligi;

ushbu funksiyani amalga oshirish doirasida korrupsiyaviy faktlar yoki shubhalar, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi;

funksiyaning amalga oshiradigan tarkibiy bo‘linma boshlig‘ining o‘rni vakantligi;

30. Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroqligi to‘g‘risidagi qaror korrupsiyaga qarshi muvofiqlashtiruvchi va (yoki) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mezonlar va ularning ekpsert xulosalari asosida qabul qilinadi.

Ushbu Uslubiyotning 28 va 29-bandlarida nazarda tutilmagan hollarda, funksiya korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq deb hisoblanadi.

### **5-bob. Tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash uslubiyoti**

31. Funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlari darajasini baholash natijalariga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi o‘rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholaydi, har bir tartib-taomil uchun korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini quyidagi o‘lchovda belgilaydi:

korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan tartib-taomil;

korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq bo‘lgan tartib-taomil.

32. Tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatari darajasini baholash faqat korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan funksiyalar uchun o‘tkaziladi.

Agar adliya organi yoki muassasasida yetarli resurslar mavjud bo‘lsa (masalan, eng kam ish hajmiga ega bo‘lgan xodimlar, moliyaviy, moddiy va texnik resurslar), korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq bo‘lgan funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini qo‘srimcha ravishda baholashi mumkin.

33. Quyidagi hollarda tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq deb hisoblanadi, agar:

tartib-taomilning ijro etish natijasi litsenziyalar, ro‘yxatga olish hujjatlari, boshqa turdagи xulosalar (shu jumladan, baholash xulosalar), shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan harakatlarni kelishish va tasdiqlash (rozilik bildirish) hisoblansa;

tartib-taomilni amalga oshirish doirasida fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar bilan bevosita shaxsiy munosabatlarga kirishilsa;

tartib-taomilni amalga oshirishda adliya organi yoki muassasasining mol-mulki va byudjet mablag‘lari begonalashtirilsa yoki adliya organi yoki muassasasining mol-mulki va byudjet mablag‘larini oluvchisi tanlansa;

tartib-taomilni amalga oshirganlik uchun fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslardan to‘lov undirilsa;

subyektiv parametrlar bo‘yicha bir nechta nomzodlar qiyoslansa.

34. Agar tartib-taomilni amalga oshirish doirasida ushbu Uslubiyotning 33-bandida ko‘rsatilgan holatlар bilan tavsiflanmagan boshqa chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa, quyidagi holatlarda tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq hisoblanadi:

korrupsiyaviy xatti-harakatlari to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali ushbu tartib-taomilga nisbatan shikoyat yoki xabarlarning mavjudligi;

ushbu tartib-taomilning amalga oshirish doirasida korrupsiyaviy faktlar yoki shubhalar, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilinishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi va (yoki) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi o‘zlarining ekspert sifatidagi fikri va tajribasi asosida tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq deb hisoblasa.

35. Ushbu Uslubiyotning 33 va 34-bandlarida nazarda tutilmagan hollarda tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq hisoblanadi.

36. Funksiya va tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatari darajasidan qat’i nazar, idoraviy bo‘ysunuvchi muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning idoraviy xaritasiga amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning to‘liq ro‘yxatini qo‘sishi kerak.

## **6-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti**

37. Adliya organining funksiya va tartib-taomillarining korrupsiyaviy darajasini baholash natijasiga ko‘ra ushbu Uslubiyotning 4 va 5-boblariga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni muvofiqlashtiruvchi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning idoraviy xaritasi loyihasini ishlab chiqadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash;

korrupsiyaviy xavf-xatarni o‘ziga xos darajasini baholash;

korrupsiyaviy xavf-xatarni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar va joriy etilgan nazorat va chora-tadbirlar tavsifi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning qoldiq darajasini baholash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning qoldiq darajasini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

38. Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash faqat korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan tartib-taomillar uchun amalga oshiriladi. Adliya organi yoki muassasasida yetarli resurslar mavjud bo‘lganda (masalan, bo‘sh xodimlar, moliyaviy, moddiy va texnik resurslar), korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq bo‘lgan tartib-taomilni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarni qo‘sishmcha ravishda aniqlashi va baholashi mumkin.

**39. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash** Adliya vazirligi tizimining faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) **tashqi va ichki axborot manbalarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.**

(39-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug‘i tahririda.)

40. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

adliya organlari va muassasalari faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;

ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari;

odob-axloq komissiyasi majlislarining yig‘ilish bayonnomalari;

xodimni korrupsiyaviy huquqbazarliklarni sodir etishga undash to‘g‘risidagi xabarlar;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalari, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

adliya organlari va muassasalari faoliyati cohasidagi huquqbazarliklar to‘g‘risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma‘lumotlar;

fuqaro va yuridik shaxslarning korrupsiya holatlari to‘g‘risida ma‘lumot berish uchun aloqa kanallariga, shu jumladan “ishonch telefoni” va Telegram-kanalga murojaatlari;

fuqarolik jamiyati institutlarining murojaatlari va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risidagi yoki adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalariga rioya qilmaganlik holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar;

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalari, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, shu jumladan prokuror ta'sir choralari hujjatlari, jinoiy ishlar bo'yicha materiallar va boshqalar.

*(40-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug'i tahririda.)*

41. Adliya organi yoki muassasadagi korrupsiyaga qarshi muvofiqlashtiruvchi quyidagilarni amalga oshirishni hisobga olgan holda funksiya va tartib-taomillarni tahlil qilish asosida potensial korrupsiyaviy xavf-xatarlarni (mumkin bo'lgan korrupsiya sxemalarining qisqacha tavsifini tayyorlaydi) aniqlaydi:

xodim tomonidan va (yoki) yaqin qarindoshlari orqali pora olish, shuningdek xodimning o'z vakolatlarini qonunga xilof ravishda bajarishi munosabati bilan tovarlarni sotib olishda, turli tashkilotlardan xizmatlar olishda asossiz, yuqori haq, imtiyozlar olish;

davlat xizmatlaridan foydalanishda sun'iy to'siqlarni yaratish;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik yoki favqulodda tartibda qaror qabul qilish yoki jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan mavjud talablarni chetlab o'tish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

rasmiy vakolatlarni amalga oshirishda favoritizm, nepotizm (tanish-bilishchilik), mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlar mavjudligi.

42. Har bir aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar uchun uning o'ziga xos darajasi (korrupsiya xavfining tug'ma darajasi) quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

yuqori;

o'rta;

past.

43. Korrupsiyaviy xavf-xatarning xos darajasi korrupsiya uchun xos bo'lgan xavf-xatar darajasini baholash matritsasiga muvofiq baholanadi (ushbu Uslubiyotga 6-ilovaga muvofiq).

44. Agar xavf-xatar yuqori yoki o'rta darajada bilan tavsiflangan bo'lsa, quyi organdagi yoki muassasadagi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshliqlariga ushbu funksiyalarga nisbatan nazorat tartiblarini tavsiflash to'g'risida so'rov yuboradi. Tegishli bo'linmalar rahbarlari olingan so'rov asosida nazorat tartib-taomillari va choralari to'g'risida zarur ma'lumotlarni tayyorlaydilar (zarur bo'lganda hujjatlarni ilova qilgan holda) va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchiga yuboradilar.

45. Ushbu Uslubiyotning 44-bandida ko'zda tutilgan ma'lumotni olgandan so'ng, idoraviy bo'ysunuvchi organ yoki muassasadagi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha

muvofiglashtiruvchi qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini quyidagi shkala bo'yicha baholaydi:

yuqori;

o'rta;

past.

46. Korrupsiyaviy qoldiq xavf-xatar darajasiga baho berish mezonlari 7-ilovada keltirilgan.

47. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori daraja bilan tavsiflanadigan funksiyalar va tartib-taomillarning adliya organlari va muassasalari xodimlarining lavozimi ko'rsatilgan holda doirasi belgilanadi. Shundan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiglashtiruvchi 5-ilovaga muvofig korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo'lgan adliya xodimlarining lavozimlari ro'yxatini ishlab chiqadi.

### **7-bob. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini kamaytirish choralari**

48. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarni kamaytiradigan chora-tadbirlar, nazorat va harakatlar, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

adliya organlari muassasalarining funksiyalari va tartib-taomillarini aniq tartibga solish;

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarini, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, ixtiyoriy vakolatlar sonini kamaytirish, taqdim etilgan hujjatlar sonini va qarorlarni qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

adliya organlari va muassasalari xodimlari hamda ularga nisbatan ma'muriy tartib-taomil va boshqa harakatlar amalga oshirilayotgan shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash, elektron axborot almashish tizimini joriy etish;

rasmiy faoliyatni amalga oshirishda axborot texnologiyalarini qo'llash, ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ularni tuzatish uchun videokuzatuv va audioyozyuv vositalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish;

rasmiy veb-saytlarda va boshqa ommaviy axborot vositalarida amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish orqali tarqatish;

fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro munosabat shakllarini kengaytirish, bu birinchi navbatda, davlat organida korrupsiya to‘g‘risida xabar berishni rag‘batlantirishga qaratish;

adliya organlari tomonidan tushuntirish tadbirlari va profilaktik suhbatlar o‘tkazilishi, ishonch telefonlari va aloqa kanallarini targ‘ib qilish;

korrupsiyaga qarshi organlar va adliya xodimlari tayyorlash;

mexanizmni takomillashtirish, aniq mezonlarni belgilash va nomzodlarni tanlashda shaffoflikni ta’minalash, korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriqoq bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan adliya tizimi xodimlarini majburiy almashtirish tartibini belgilash;

yakka tartibda qaror qabul qilish holatlarini kamaytirish, shuningdek adliya organlari xodimlarining qarorlar natijalari to‘g‘risida hisobot berishning qo‘sishicha shakllarini yaratish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki hujjalarga har kuni, o‘zaro va to‘liq rioya qilinishlarini nazorat qilinishini ta’minalash;

adliya organlarining korrupsiyaga qarshi tizimi elementlarining samarali ishslashini ta’minalash.

*(48-bandning uchinchi, to‘rtinchи xatboshilar O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdaги 230-um-son buyrug‘i bilan to‘ldirilgan.)*

49. Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish choralarini belgilashda quyidagilar zarur:

har bir chora adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan o‘z maqsadlarini, yakuniy natijani va ma’lum korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishni to‘g‘ri tushunish uchun aniq va to‘g‘ri shakllantirish;

har bir chora uchun, uni amalga oshirish davri yoki davriyligi belgilanishi, uning bajarilishi uchun ma’sul shaxslar, ushbu chora-tadbirlarning bajarilishini monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlash kerak.

50. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchining adliya tizimining bo‘limlari rahbarlari bilan uchrashuvlaridan so‘ng ishlab chiqilgan idoraviy bo‘ysunuvchi organ yoki muassasada aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish choralar bu organ yoki adliya tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

50<sup>1</sup>. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan vazirlik markaziy apparati faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida davlat tashkilotining umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va “E-anticor.uz” elektron platformasiga har yili 1-fevralga qadar kiritiladi.

50<sup>2</sup>. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan “E-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi hujjatlar shakllantiriladi:

davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi;

davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati.

50<sup>3</sup>. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

50<sup>4</sup>. Adliya vaziri har yili 1-martga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

*(50<sup>1</sup>, 50<sup>2</sup>, 50<sup>3</sup>, 50<sup>4</sup>-bandlar O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug’iga asosan kiritilgan.)*

## **8-bob. Yakuniy qoidalar**

51. Zaruratga ko‘ra, adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish masalalari Adliya vazirligi tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining taklifiga binoan adliya vaziri tomonidan ko‘rib chiqiladi.

52. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish Adliya vazirligi tizimidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

53. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilmasligi yoki yetarli darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlik adliya organi yoki muassasasi rahbariga yuklatiladi.

## Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 1-ILVOVA

“TASDIQLAYMAN”  
Davlat tashkilotining rahbari  
F.I.O.  
-yil “ ”

## **Adliya organlari va muassasalarining faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) TAVSIFI**

(1-illova O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug'i tahririda.)

## Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 2-ILLOVA

# **Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyinchalik baholash uchun adliya organlari va muassasalari funksiyalarini tavsiflash uchun savolnoma**

## **SHAKLI**

**Iltimos, quyidagi savollarga javob bering (kerakligini belgilang):**

1. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni so'nggi martda baholaganingizdan beri qonun hujjatlarida biron-bir o'zgarishlar bo'ldimi? Agar o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni so‘nggi martda baholaganingizdan beri tarkibiy bo‘linma tomonidan amalga oshirilgan funksiyalarda yoki ushbu tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda biron-bir o‘zgarishlar bo‘ldimi? Agar o‘zgarishlar bo‘lgan bo‘lsa, iltimos, quvidagi jadvalga tegishli ma’lumotlarni kriting.

3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni so'nggi martta baholaganingizdan beri sizning bo'linmangiz tomonidan bajariladigan funksiyalarni bajarishga ta'sir ko'rsatgan yoki ta'sir ko'rsatadigan davlat boshqaruvi organlarining faoliyatida / tarkibiy qismida biron-bir o'zgarishlar bo'ldimi? Agar o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kriting.

A) Ha                    B) Yo'q

4. Avvalgi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida korrupsiya xavf-xatarini minimallashtirish bo'yicha choralar ko'rildimi? Nima va qachon amalga oshirilganligini tasvirlab bering. Amalga oshirilmagan yoki qisman bajarilgan bo'lsa, nima uchun bunday bo'lganini yozing.

A) Ha                    B) Yo'q                    V) Qisman bajarilgan

5. Adliya organlari va muassasalarining funksiyalari va tartib-taomillarining bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar ham mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kriting.

A) Ha                    B) Yo'q

T/r	Funksianing o'zgarish sabablari	Funksiya o'zgarishlarining tavsifi	Funksiya doirasida bajariladigan yangi / o'zgartirilgan tartib-taomillar	Tartib-taomillarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar (F.I.O, lavozimi)
<b>1. Adliya organi va muassasasining nomi</b>				
<b>1.1. Adliya organi va muassasasining tarkibiy tuzilmasi nomi</b>				
1.1.1.				
1.1.2.				
...				

Adliya organi / muassasasi nomi \_\_\_\_\_

Tarkibiy tuzilma nomi \_\_\_\_\_

To'ldirgan shaxsning lavozimi \_\_\_\_\_

To'ldirgan shaxsning  
F.I.O. \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_

To'ldirilgan sana \_\_\_\_\_

**ning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning  
XARITASI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, o'rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralar	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o'rta, yuqori)	Mas'ul ijrochilar
1.	1. Tarkibiy bo'linmaning nomi*						
1.	1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
2.	2. Tarkibiy bo'linmaning nomi*						
2.	2.1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
2.	2. Jarayon nomi						

(3-illova O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug'i tahririda.)

Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 4-ILOVA

**Adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish  
DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari/tadbirlari/tartib-taomillari	Amalga oshirish myexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
<b>1. Adliya organining nomi</b>				
1.1.				
1.2.				
...				
<b>2. Adliya organining nomi</b>				
2.1.				
2.2.				
...				
...				

### **Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan adliya organlarining lavozimlari RO‘YXATI**

T/r	Bo‘linmalar funksiyalarini bajarishga mas’ul bo‘lgan shaxslar (F.I.O., lavozimi)	Bo‘linma nomi
<b>1. Adliya organi nomi</b>		
1.1.		
...		
<b>2. Adliya organi nomi</b>		
2.1.		
...		
...		

Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni  
baholash uslubiyotiga 6-ILOVA

### **O‘ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash MATRITSASI**

Funksiya	Tartib-taomil	Bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy harakat/xavf-xatar	O‘ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi
Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan	Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan	xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan pora olish, shuningdek, xizmat majburiyatlarini vijdonsizlik bilan bajarish sababli turli tashkilotlardan tovarlar sotib olish, xizmatlardan foydalanishda asossiz yuqori mukofotlar, preferensiylar yoki imtiyozlarni olish;	Yuqori
		davlat xaridlaridan foydalanishda sun’iy to‘siqlar yaratish;	Yuqori
		belgilangan muddatda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari tartibda yoxud muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan amaldağı talablarni chetlab o‘tgan holda tezlashtirib qaror qabul qilish;	Yuqori
		hujjatlarga, ma’lumotlarning elektron bazasiga bila turib yolg‘on ma’lumotlarni kiritish;	Yuqori
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi;	Yuqori
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda favoritizm, nepotizm, mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik holatlарining mayjudligi;	Yuqori
		xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan pora olish, shuningdek, xizmat majburiyatlarini vijdonsizlik bilan bajarish sababli turli tashkilotlardan tovarlar sotib olish, xizmatlardan foydalanishda asossiz yuqori mukofotlar, preferensiylar yoki imtiyozlarni olish;	O‘rta
	Korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq bo‘lgan	davlat xaridlaridan foydalanishda sun’iy to‘siqlar	O‘rta

Funksiya	Tartib-taomil	Bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy harakat/xavf-xatar	O‘ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi
		yaratish;	
		belgilangan muddatda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari tartibda yoxud muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan amaldagi talablarni chetlab o‘tgan holda tezlashtirib qaror qabul qilish; hujjatlarga, ma’lumotlarning elektron bazasiga bila turib yolg‘on ma’lumotlarni kiritish;	O‘rta
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashivi;	O‘rta
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda favoritizm, nepotizm, mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik holatlarining mayjudligi;	O‘rta
Korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq bo‘lgan	Korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq bo‘lgan	xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan pora olish, shuningdek, xizmat majburiyatlarini vijdonsizlik bilan bajarish sababli turli tashkilotlardan tovarlar sotib olish, xizmatlardan foydalanishda asossiz yuqori mukofotlar, preferensiyalar yoki imtiyozlarni olish;	Past
		davlat xaridlaridan foydalanishda sun‘iy to‘siqlar yaratish;	Past
		belgilangan muddatda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari tartibda yoxud muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan amaldagi talablarni chetlab o‘tgan holda tezlashtirib qaror qabul qilish; hujjatlarga, ma’lumotlarning elektron bazasiga bila turib yolg‘on ma’lumotlarni kiritish;	Past
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashivi;	Past
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda favoritizm, nepotizm, mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik holatlarining mayjudligi;	Past

Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 7-ILOVA

### **Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo‘yicha mezonlar**

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)

<b>O‘rta*</b>	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
<b>Past**</b>	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq tartibga solingan jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot mavjud emas

\*Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o‘rta darajada deb baholash davlat tashkiloti rahbari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

\*\*Davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo‘lsa, o‘sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi”.

(7-ilova O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug‘i tahririda.)

“NAZORATDA 09.08.2022-yil”

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining  
2020-yil “24” fevraldagi  
45-son buyrug‘iga  
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimi xodimlari  
uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni  
tashkil etish yuzasidan  
USLUBIY KO‘RSATMALAR**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalar adliya organlari va muassasalari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarida ichki idoraviy o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarni belgilaydi.

2. Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va ularni sodir etishga olib kelayotgan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularni qonun hujjatlariga hamda adliya organlari va muassasalarining ichki hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Adliya organlari va muassasalarining xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv dasturlari va materiallari ushbu Uslubiy ko‘rsatmalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

4. Adliya organlari va muassasalarining Inson resurslari boshqarmasi / bo‘limi xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘adi va tahlil qiladi.

*(4-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 9-avgustdaggi 180- sht-son buyrug‘i  
tahririda)*

**2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlarining asosiy  
tamoyillari**

5. Adliya organlari va muassasalarining xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari quyidagi tamoyillarga tayanadi:

**xolislik va ilmiylik** – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv materillarini tayyorlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar ularni ilmiy faktlar, O‘zbekiston

Respublikasi qonunchiligi talablari va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi;

**amaliylik** – adliya organlari va muassasalarining xodimlarini korrupsiyaga qarshi o'qitishning shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, haqiqiy vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek, xodimlar tomonidan olingan materiallarni tushunishi darajasi va muayyan amaliy vazifalarni hal qilish uchun qo'llay olish imkoniyatini, keyinchalik nazoratini qamrab olishi zarur;

**ketma-ketlik va tizimlilik** – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarining tayyorlash hamda adliya organlari va muassasalarining xodimlarini o'qish tartibi ketma-ket tarzda, tuzilmaviy-mantiqiy tizim shaklida amalga oshiriladi. O'qitish umumiy tushunchalar va hodisalardan yakka tartibga, soddadan murakkabga, bazaviydan rivojlanganga va h.k. asosida amalga oshiriladi;

**hammag'a mo'ljallanganlik** – korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari adliya organlari va muassasalari xodimlarining mavjud bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olish, barcha xodimlarga tushunarli bo'lgan o'quv materiallarini shakllantirish asosida amalga oshiriladi;

**differensial yondashuv** – adliya organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari muayyan funksiyalar / faoliyat yo'nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalarini inobatga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar qo'shimcha maxsus tarzda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitiladi;

**o'qitish ishlarining usullari va shakllarini doimiy asosda takomillashtirish** – adliya organlari va muassasalari o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek, xodimlarining bilimlarni o'zlashtirganligini tekshirishda texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsiyaviy yutuqlaridan foydalanishga intiladi.

### **3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarining ustuvor vazifalari**

6. O'qitish ishlarining shakli va usullarini belgilash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini shakllantirishda adliya organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishga mas'ul bo'lgan shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga asoslanishlari lozim:

korrupsiyaning mohiyati, uning shakllari, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'lishi xususiyatlari, ushbu voqelikning sabablari, ijtimoiy-xavfli va zararli oqibatlari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xulq-atvorning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga qat’iy va so‘zsiz rioya qilinishiga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

xodimlarni adliya organlari va muassasalarida amal qiladigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tamoyillar, talablar va tartib-taomillar bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuz berishiga ko‘maklashuvchi holatlarni aniqlash va oldini olish, korrupsiyaviy xulq-atvorga nisbatan murosasizlikni namoyish etish qobiliyatini shakllantirish.

#### **4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlarini shakllantirish va o‘tkazishga mas’ul shaxslar**

7. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi) adliya organlari va muassasalarini xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv rejalarini tayyorlashda qatnashadi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv materiallarini ishlab chiqadi, o‘qitish ishlarini muvofiqlashtiradi, shuningdek, adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tamoyillari va talablariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish uslubiga muvofiq adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlarining tartib-taomillarini monitoring va nazorat qiladi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi adliya organlari va muassasalarini xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitishga Inson resurslari boshqarmasi (bo‘limi)ni hamda adliya organlari va muassasalarining boshqa tarkibiy bo‘linmalarini jalb qiladi.

*(8-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 9-avgustdagи 180- sht-son buyrug‘i tahririda)*

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi adliya organlari va muassasalarini xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish rejalarini tayyorlash va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv materiallarini ishlab chiqishda “Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat muassasasi hamda Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan hamkorlik qiladi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi o‘quv materiallarini tayyorlashga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qtish ishlarini xalqaro yoki tegishli tajribaga ega bo‘lgan mahalliy tashkilotlar bilan shartnama tuzish asosida uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

## **5-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish muddatlari va davriyligi**

11. Adliya organlari va muassasalarining xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi hamda adliya organlari va muassasalarining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan majburiy tarzda malaka oshirish davomida ta’lim olganligi hamda qo‘shma konferensiyalar, yig‘ilishlar, simpoziumlar o‘tkazilishidan qat’i nazar amalga oshiriladi.

13. Adliya organlari va muassasalarining xodimlari quyidagi hollarda bir yilda bir martadan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qishda ishtirok etadi:

agar xodim korrupsiyaviy xavfi yuqori bo‘lgan lavozimni egallab turgan bo‘lsa; lavozimga tayinlash va rotatsiya qilinishda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatiga kirsa,

adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik aniqlanganda yoki bajarilayotgan funksiyaning korrupsiyaviy xavfi darajasi oshganda;

adliya vaziri, uning o‘rinbosarlari hamda adliya organlari va muassasalari rahbarlarining topshirig‘iga ko‘ra.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish kunduzgi shaklda yoki masofaviy o‘qitish elektron platformasidan foydalangan holda xodimlarning zaruriy tayyorgarligi va bilimlarini oshirish hamda nazorat qilish ishlari o‘tkazilishi mumkin. Barcha adliya organlari va muassasalari xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qishda ishtirok etishi uchun ushbu masofaviy o‘qitish elektron platformasiga kirish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari adliya vaziri, uning o‘rinbosarlari hamda adliya organlari va muassasalari rahbarlari tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

16. Adliya organlari va muassasalariga ishga qabul qilingan xodimlar ishga qabul qilingan paytdan boshlab ikki hafta muddatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishlarda ishtirok etishi hamda adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki hujjatlari bilan tanishtirilishi lozim.

## **6-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish turlari va shakllari**

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyl o‘qitish;

korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish;

adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlarini joriy etishga mas’ul bo‘lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qishlarni tashkil etish.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyl o‘qitish adliya organlari va muassasalarining barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda adliya organlari va muassasalarining ichki hujjatlari, korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir etilganda harakat qilish qoidalari va tartibi, shuningdek, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni olishga qaratiladi.

19. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyl o‘qitish natijalariga ko‘ra adliya organlari va muassasalarining xodimlari o‘rganilgan materiallarni o‘zlashtirilganligi va tushunilganligini hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishlarini tekshirishga qaratilgan test topshirishlari lozim.

20. Adliya organi va muassasasining xodimlari kamida 90 % savollarga to‘g‘ri javob bersa, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyl o‘qitishni muvaffaqiyatli tamomlagan hisoblanadi.

21. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish korrupsiyaga qarshi umumiyl o‘qitishdan tashqari quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni identifikatsiya qilish va kamaytirish usullari va turlari;

korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida yuqori lavozimlarda korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari va turlarini.

22. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyl o‘qitishdan qat‘i nazar amalga oshiriladi.

23. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan adliya organlari

va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi shaxslar ko'magida O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan tasdiqlangan Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

24. Adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etishga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ekspertlarni jalg qilgan holda malakasini oshirish, shuningdek, ixtisoslashtirilgan vakolatlari uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etiladigan treninglarda qatnashish shaklida har ikki yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

25. Mazkur Usulubiy ko'rsatmalarning 26-bandida ko'rsatilgan malaka oshirish va treninglar kamida 40 (qirq) soat davomida o'tkaziladi.

26. Adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etishga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi qonunchiligidagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarni qurish va davlat organlarida korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalgga oshirilishimi o'rganishni qamrab olishi lozim.

## **7-bob. Korrupsiyaga qarshi o'quv dasturi**

27. Adliya organlari va muassasalarining xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish amaliy ahamiyatga ega bo'iishi hamda yangi bilimlarni o'rnatishi yoki:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni, adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjalarni, jumladan, o'matilgan taqiqlar, cheklovlar, majburiyatlar va ruxsatnomalar, xizmat xulq-atvoriga qo'yiladigan talablar, korrupsiyaviy tavsiyadagi huquqbazarliklar aniqlanganda adliya organlari va muassasalari xodimlari harakatlarining ketma-ketligi bilan bog'liq bilimlar,

adliya organlari va muassasalari faoliyatining turli yo'nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyatini, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan choralarни amaliyotda qo'llash mahorati bo'yicha olingan bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini takrorlashni ta'minlashi zarur.

28. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv materiallariga mazkur Uslubiy ko'rsatmalarining ilovasida ko'rsatilgan namunaviy mavzular kiritilishi mumkin.

#### **8-bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish kiritish tartibi**

29. Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda adliya organlari va muassasalarining ichki hujjatlari o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimi xodimlari  
uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni  
tashkil etish yuzasidan uslubiy ko‘rsatmalarga

ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimi xodimlari uchun  
korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv  
NAMUNAVIY DASTURI**

Mavzu	Mavzu tarkibi
Korrupsiyaning tabiatи.	Korrupsiya tushunchasi, shakllari va sabablari; Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar.
Adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish usullari.	Korrupsiyaga qarshi kurashish elementlari, shuningdek, adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muhim choralarining tahlili; Adliya organlari va muassasalarida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, aniqlash va hal qilish; Adliya organlari va muassasalarini xodimlarining xulq- atvor qoidalarini; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyatları va vakolatlari; Ma’muriy tartib-taomillar va reglamentlardan

<b>Mavzu</b>	<b>Mavzu tarkibi</b>
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va odatiy korrupsiyaviy huquqbuzarliklar.	<p>foydalinish. Ma'muriy chegaralarni olib tashlash;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik xavfi aniqlanganda amalga oshiriladigan harakatlar.</p> <p>Adliya organlari va muassasalarini tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklarning asosiy turlari;</p> <p>Davlat mulki va byudjet mablag'laridan foydalinish bo'yicha tanlovga oid tartib-taomillarning samaradorligi;</p> <p>Adliya organlari va muassasalarining xaridlarni amalga oshirish faoliyati doirasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Jismoniy va yuridik shaxslarga ommaviy xizmatlarni ko'rsatishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Litsenziyalash va nazorat qilish-ruxsat berishning boshqa faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Qonunlar hamda adliya organlari va muassasalarining ichki hujjatlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayonidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Tekshiruvlar o'tkazish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rGANISHDA korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Adliya organlari va muassasalarining faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>
Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlik.	<p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun intizomiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida sud amaliyoti.</p>

Mavzu	Mavzu tarkibi
Korrupsiyaga qarshi fuqarolik jamiyati.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish vosittasi sifatida jamoatchilik nazorati;</p> <p>Huquqiy neglizimmi bartaraf etish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat birlashmalarini va ommaviy axborot vositalarining roli;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi ijtimoiy fikr va xulq-atvorni shakllanrirish;</p> <p>Ommaviy qoralash choralari;</p> <p>Fuqarolik jamiyati institutlarining O'zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari bilan o'zaro hamkorligi.</p>

**“NAZORATDA 29.09.2022-yil”**

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining  
2020-yil 24-fevraldaggi 45-um-son  
buyrug‘iga  
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi  
tamoyillar va talablarga rioya qilinishini  
monitoring va nazorat qilish  
USLUBIYOTI**

**I. Umumiq qoidalar**

1. Mazkur Uslubiyot adliya organlari va muassasalari tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Uslubiyotda monitoring deganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda adliya organlari va muassasalarining faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish, nazorat yoki tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.

3. Quyidagilar Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilishning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi:

a) adliya organlari va muassasalari faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

b) adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tadbiq etilgan tartib-taomillarning samaradorligini baholash;

v) korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish.

4. Adliya organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha javobgar bo‘lib Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (keyingi o‘rnarda – Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi) hisoblanadi.

## **II. Monitoring va nazorat qilish yo‘nalishlari va ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar**

5. Monitoring va nazorat adliya organlari va muassasalarida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar, yaxlit holda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan (keyingi o‘rinlarda – korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi) funksiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida adliya organlari va muassasalarida joriy etilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.

6. Adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha monitoring va nazorat qilinadi:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi va uning qonunchilik, shu bilan birga, xalqaro qonunchilik va standartlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish, jumladan:

adliya organlari va muassasalari faoliyatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonun hujjatlari va yuqori turuvchi organlarning tavsiyalarini monitoring qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimni yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalarini monitoring qilish;

b) adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi tizimining samaradorligini monitoring qilish, jumladan:

adliya organlari va muassasalarining, jumladan, ular xodimlarining korrupsiyaviy harakatlarga aralashganligi haqidagi ma’lumotlar hamda kontragentlarida shunga o‘xshash ma’lumotlar mavjudligi yuzasidan ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish;

adliya organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish;

adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillarga rioya qilinishini tanlov asosida monitoring qilish.

## **III. Korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish tartibi**

7. O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha qonunchilik va tavsiyalariga rioya qilinishini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi har yili O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchiligiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyaning qarorlariga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarining monitoringini amalga oshiradi. Monitoring natijalariga ko‘ra Adliya vazirligining ichki hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi zarurligi haqida qaror qabul qilinadi;

b) monitoring natijalaridan kelib chiqib, adliya organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga o‘zgartirish kiritishga zarurat bo‘lganda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tegishli takliflarni mazkur Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda aks ettiradi.

8. Xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tavsiyalarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi har yarim yilda kamida bir marta korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimni yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan xorijiy tashkilotlarning (BMT, SHHT, YEHHT va boshqalar) tavsiyalarini monitoring qiladi. Qo‘srimcha tarzda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Organization for Standardization, ISO) tomonidan chiqariladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi standartlar, Buyuk Britaniyaning regulyatorlari tomonidan “Poraxo‘rlikka qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va AQSHning “Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq chiqariladigan tavsiya va tushuntirishlar, xalqaro Transperensi-Interneshnl tashkilotining (Transparency International) korrupsiyaga qarshi kurashish va tashkilot faoliyatining shaffofligini ta’minlash masalalari bo‘yicha tavsiyalarining monitoringini amalga oshiradi;

b) monitoring natijalaridan kelib chiqib va zarurat bo‘lganda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Adliya vazirligining ichki hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida tegishli takliflarni tayyorlaydi va ularni mazkur Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda aks ettiradi.

9. Ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi shaxslari hamda adliya organlari va muassasalarining matbuot xizmati faol ko‘magida adliya organlari va muassasalari, ularning bo‘limnalari va (yoki) ularning xodimlarining biron-bir g‘ayrihuquqiy,

jumladan, korrupsiyaviy harakatlarga (keyingi o‘rinlarda – relevant ma’lumot) jalb qilinganligi haqidagi ma’lumotlar mavjudligini aniqlash uchun ommaviy axborot vositalarini (milliy va xorijiy), shu jumladan, jurnallar, ro‘znomalar, Internet tarmog‘i va boshqa ommaviy axborot vositalarini doimiy asosda monitoring qiladi.

b) adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi shaxslari hamda matbuot xizmati tomonidan aniqlangan relevant ma’lumot zudlik bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yetkaziladi;

v) ommaviy axborot vositalarida adliya organlari va muassasalari, ularning bo‘linmalari va (yoki) ularning xodimlarining biron-bir g‘ayrihuquqiy, jumladan, korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi haqidagi ma’lumotlar aniqlanganda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i ushbu fakt haqida zudlik bilan adliya vaziriga xabar beradi va xizmat tekshiruvini tayinlaydi va (yoki) aniqlangan ma’lumotlarni adliya organlarining faoliyatiga salbiy ta’sirini minimallashtirish, jumladan, Adliya vazirligi tizimining nufuzini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

g) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida aniqlanganligi faktini mazkur Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda jurnalga qayd etadi.

10. Adliya organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan har yarim yilda bir marta adliya organlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish tizimi bo‘yicha mazkur Uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq birlamchi tadbirlarni tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarga rioya qilinishini monitoring qilish belgilangan rejaga muvofiq tekshiruv shaklida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

11. Adliya vazirining buyrug‘iga ko‘ra adliya organlari va muassasalarida ularning faoliyati bo‘yicha rejadan tashqari komplayens-tekshiruvlar o‘tkazilishi mumkin.

adliya organlari va muassasalari faoliyatida Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjalariha hamda ISO 37001:2016 “Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari” xalqaro standartiga muvofiqligi yuzasidan komplayens tekshiruvlar adliya vazirining ko‘rsatmasiga muvofiq yilda bir marotaba o‘tkaziladi.

(11-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son buyrug'i bilan to'ldirilgan.)

12. Komplayens-tekshiruvlar doirasida xodimlar tomonidan Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati va tartib-taomillarga rioya qilinishini nazorat qilish, sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni har yili baholanishi va avvalgi monitoring doirasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish amalga oshiriladi.

13. Komplayens-tekshiruvlarni har yilda rejalashtirish quyidagi tartibda amalgalashiriladi:

har yili 15-yanvargacha Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi adliya organlari va muassasalarida komplayens-tekshiruvlarni o'tkazish rejasini ishlab chiqadi;

reja bir kalendar yilga tuziladi va birinchi navbatda, adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo'lgan funksiyalarini o'z ichiga oladi. Komplayens-tekshiruvlarni o'tkazish rejasida:

a) tekshiruv sohasi (yo'nalishi) – muayyan adliya organlarining tahlil qilinadigan ichki jarayonlari va (yoki) funksiyalari/yo'nalishlari;

b) tekshiruv predmeti – ijrosi tekshirilishi lozim bo'lgan adliya organlarining ichki hujjatlari;

v) tekshiruv davri;

g) tekshiruv turi (to'liq yoki tanlov asosida);

d) tekshiruv usuli (masalan, to'g'ridan-to'g'ri funksiyani bajarishga mas'ul bo'lgan xodim bilan intervyu, hujjatlarni, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini tekshirish va h.k.) ko'rsatiladi.

Reja 31-yanvargacha adliya vaziri tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

14. Komplayens-tekshiruvlar adliya vazirining tekshiruvlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi buyrug'i asosida o'tkaziladi.

15. Komplayens-tekshiruvlar alohida holatlarni hisobga olgan holda quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) komplayens-tekshiruv adliya organlarining jarayonlari/hujjatlarini tahlil qilish, shuningdek, muayyan chora-tadbirlar/funksiyalarni bajarilganligini tasdiqlash uchun zarur ma'lumot/hujjatlarni so'rashdan boshlanadi (masalan, xarid bo'yicha hujjatlarni, arz qiluvchi bilan elektron yozishmalarni, kirish va chiqish hujjatlarini,

buxgalterlik birlamchi hujjatlarni, hisobga olish tizimidan yuklanmalar, fotomateriallar, tasdiqlovchi hujjatlar);

b) so‘rov yuborilayotgan adliya organlari tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari so‘ralayotgan barcha hujjatlarni o‘z vaqtida va to‘liq taqdim etilishiga javobgar hisoblanadi;

v) so‘ralayotgan hujjatlar olinganidan keyin Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi jarayon va funksiyalarni ularning bajarilishi ichki hujjatlarga, jumladan, korrupsiyaga qarshi tamoyillar, talablar va tartib-taomillarga muvofiqligini tahlil qiladi. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi adliya organlari va muassasalari xodimlari harakatlarining qonuniyligini va ularga adliya organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar jihatidan yo‘l qo‘yilishini tekshiradi;

g) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining komplayens-tekshiruvni o‘tkazayotgan xodimlari komplayens-tekshiruvni lozim darajada hujjatlar bilan rasmiylashtirilishini va kuzatilishini, jumladan, quyidagilardan iborat bo‘lgan ish hujjatlarini ramiylashtirish yo‘li bilan ta’minkaydi:

tekshiruv va tekshirilgan tartib-taomillar doirasida bajarilgan harakatlar haqidagi ma’lumot;

aniqlangan qoidabuzarliklar/kuzatuvlar haqidagi ma’lumot;

komplayens-tekshiruvning xulosalari/natijalarini tasdiqlovchi fayllar/hujjatlar (so‘ralgan hujjatlarning nusxalari/skaner qilingan versiyalari);

d) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i ushbu bo‘lim xodimlari tomonidan komplayens-tekshiruvning tasdiqlangan rejasi doirasida o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishlarini nazorat qilib, komplayens-tekshiruv natijalarining asoslanganligi bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

16. Komplayens-tekshiruv Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining topshirig‘i va adliya vazirining buyrug‘i bilan uchinchi shaxslar tomonidan komplayens-tekshiruvni o‘tkazish tajribasiga ega bo‘lgan xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan shartnoma tuzish orqali o‘tkazilishi mumkin.

17. Komplayens-tekshiruv natijalariga ko‘ra quyidagi asosiy qismlardan iborat bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilinishi haqida ma’lumotnomasi-hisobot tuziladi:

**kirish qismi:** o‘tkazilgan komplayens-tekshiruv haqida ma’lumot (jarayonlar/funksiyalar, tekshirilayotgan davr, ishtirokchilar, muddatlar, nazorat tartib-taomillari, o‘rganilgan hujjatlar va h.k.) ko‘rsatiladi;

**bayon qismi:** tekshiruv davomida aniqlangan holatlar, tekshiruv tadbirlarini o‘tkazish natijalari va aniqlangan qoidabuzarliklar haqidagi ma’lumot aks ettiriladi;

**qaror qismi:** adliya organlaridagi korrupsiyaga qarshi mavjud nazoratlar/tartib-taomillarning samaradorligi haqidagi xulosalar va (zaruratga ko‘ra) ichki jarayonlarni amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi choralarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi.

18. Komplayens-tekshiruv haqidagi hisobotning asosiy qoidalari/kuzatuvarlar ushbu Uslubiyotining 1-ilovasiga muvofiq shaklda umumiylar jurnalda aks ettiriladi.

#### **IV. Yakunlovchi qoidalar**

19. Monitoring va nazorat bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasiga ko‘ra Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi har chorakda adliya vaziri va Adliya vazirligi Hay’ati oldida hisobot beradi.

20. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan monitoring va nazorat bo‘yicha chora-tadbirlar natijasiga ko‘ra ishlab chiqilgan tavsiyalar keyingi yilga mo‘ljallangan Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga  
1-ILOVA

**Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish  
JURNALI**

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har yili/har yarim yilda/har kuni/muntazam)	Monitoring / tadbirni o‘tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘g‘rilash choralari	Mas’ul ijrochi	To‘g‘rilaradiogan chora-tadbirlarni ijro muddati	Ijro holati
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetariligidini baholash</b>								
1.	<i>Qonunchilik va vakolatlari organlarining tavsiyalarining monitoringi</i>	<b>Har kuni</b>		1.1. .... 1.2. .... ...	1.1. .... 1.2. .... ...	1.1. .... 1.2. .... ...	1.1. .... 1.2. .... ...	1.1. .... 1.2. .... ...
2.	<i>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarida xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalarining monitoringi</i>	<b>Har yarim yilda</b>		2.1. ... 2.2. ... ...	2.1. ... 2.2. ... ...	2.1. ... 2.2. ... ...	2.1. ... 2.2. ... ...	2.1. ... 2.2. ... ...
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini baholash</b>								
3.	<i>OAV monitoringi</i>	<b>Muntazam</b>		3.1. ... 3.2. ... ...	3.1. ... 3.2. ... ...	3.1. ... 3.2. ... ...	3.1. ... 3.2. ... ...	3.1. ... 3.2. ... ...
4.	<i>Xodimlarning korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini</i>	<b>Har yarim yilda</b>		4.1. ... 4.2. ... ...	4.1. ... 4.2. ... ...	4.1. ... 4.2. ... ...	4.1. ... 4.2. ... ...	4.1. ... 4.2. ... ...

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har yili/har yarim yilda/har kuni/muntazam)	Monitoring / tadbirni o'tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to'g'rilash choralar	Mas'ul ijrochi	To'g'rilanadio gan chora-tadbirlarni ijro muddati	Ijro holati
	tekshirish							
5.	<i>Adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi o'rnatilgan siyosat va tartib-taomillarga rioya qilinishining monitoringi</i>	<b>Har yili</b>		5.1. ...	5.1. ...	5.1. ...	5.1. ...	5.1. ...
				5.2. ...	5.2. ...	5.2. ...	5.2. ...	5.2. ...
				...	...	...	...	...

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga  
2-ILOVA

**Adliya organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan  
xabardorligini tekshirish**  
**TIZIMI**

T/r	Tekshiruv yo‘nalishi	Tekshiruv tadbirlari
1.	Adliya organlari va muassasalari xodimlariga odob-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (kunduzgi yoki sirtqi) o‘tkazilishining monitoringi	Treninglar muntazamligi, ularning mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki talablarga rioya qilinishinii nazorat qilish.
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish	Adliya organlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish: 1) tekshiruvda qatnashish uchun adliya organlari va muassasalari xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – adliya organlarida turli tarkibiy bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni 10 nafar); 2) ichki hujatlarda ko‘rsatilgan korrupsyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin);

<b>T/r</b>	<b>Tekshiruv yo‘nalishi</b>	<b>Tekshiruv tadbirlari</b>
		<p>3) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;</p> <p>4) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.</p>